

## KOLIZEY VA PIZA HAQIDA MA'LUMOTLAR

Fayzullayev Shahzod Bahrom o'g'li

Andijon viloyati Oltinko'l tumani

2-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Rim shahrining ramzlari bo'lmish Kolizey hamda Piza yodgorliklari haqida ma'lumotlar tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Rim, Kolizey, Piza, obida, tarix, yodgorlik.

### KIRISH

Ikki ming yil muqaddam Rim madaniyati katta hudud bo'ylab yoyilgan. Imperiya qo'lgan kiritgan yer-mulkari, qonunchiligi va ommaviy ko'ngilochar mashg'ulotlari bilan dong taratdi. Rim tomonidan zabt etilgan ko'pgina shaharlarda ulkan amfiteatrlar barpo etilgan. Rimliklarning shafqatsiz va qonli tomoshalarga moyilligini bilganimiz sabab bunday inshootlar nimaga mo'ljallanganini payqash mushkul emas.

### ASOSIY QISM

Toshdan ishlangan ochiq qurilmalar hayrat uyg'otadi va hayajonga soladi. Bu yerda teatr tomoshalari, gladiatorlar janglari o'tkazilgan. Arxitektura yodgorligining katta qismi vaqt "qurboniga aylangan", biroq ayrim qismlari yaxshi saqlangan.

Ba'zi arenalardan hozir ham jamoat tadbirlarini o'tkazishda foydalaniladi. Sayyohlar turli mamlakatlardagi tarixiy o'tmishga o'z qo'llari bilan tegib ko'rish imkoniyatiga egalar. Ulkan inshootlar sinchkovlik bilan himoya qilinmoqda va jahon merosini qadrlaydigan arxitektorlar tomonidan qayta tiklanmoqda.

Kolizey lotin tilidan tarjima qilinsa, "ulkan" degan ma'noni anglatadi. Bunday ta'rif katta maqsadlarga ega bo'lgan Rim davrini a'lo darajada izohlaydi. Qadimiy imperiya arxitektura ijodkorligining yetuk namunasi Rimdagi Kolizeydir. Uni yana barcha tabaqalar uchun inshoot qurishga qaror qilgan Tit Flaviy Vespasian nomi bilan ham atashadi.

Diametri 500 metrdan ortiq va devorlari 50 metrdan baland bo'lgan arenani qurish uchun jami 8 yil ketgan. Axir kompleks eramizdan avvalgi 72-64-yillarda qo'lda barpo etilgan.

Rim imperiyasi qulaganidan keyin Kolizey o'zining ilk vazifasini yo'qotdi. Bino XV asrdagi zilzila vaqtida xarobaga aylandi. Biroq bugun ham u Rimning asosiy ramzlaridan biri.

Romantik Verona shahri markazida I asrga tegishli bo'lgan inshoot bor. Imperator Avgust buyrug'iga binoan, arxitektorlar oq va pushtirang ohakdan foydalanishgan. Bu esa inshootga joziba va nazokat bergan.

Ellips shaklidagi arena uzunligi 140x100 bo'lib, 45 qavatdan iborat. Amfiteatr 30 ming kishini sig'dira olgan. Rim davrida gladiatorlar jangiga mo'ljallangan arenada Uyg'onish davriga kelib, teatr premeralari namoyish etildi.

Restavratsiya qilingani sabab, bugungi kunda Di-Verona arenasida musiqali postanovkalar namoyish etiladi. Pula shahrida I asrda Kolizeyning kichraytirilgan varianti qurildi. O'ttiz uch metrqa yetgan devorlar qirg'oq bo'yiga qadar cho'zilgan. Inshoot turli tomonlardan ikki va uch qavatli arkalarga ega.

Uzoq vaqt davomida binolar xarobaga aylantirilib, toshlar tashib ketildi. Biroq masalani o'z vaqtida anglagan tarixchilar buyuk davr yodgorligini qayta tiklashga chaqirdilar.

Ulkan kompleks ziyoratlar uchun ochiq: yuqori qavatlar va yer osti inshootiga zarar yetmagan. Ekstremallar uchun suvni yetkazish joylarini ko'rish mumkin bo'lgan ekskursiyalar taklif etiladi.

Hozirgi Fransiya hududida I asrda qurilgan arena Rim imperiyasi qulaguniga qadar saqlanib turdi. Konstruktsiya jami 120 ta arkadan iborat. Inshoot 136x109 metrli oval shaklida. Amfiteatr bir vaqtning o'zida 25 mingtagacha tomoshabinni sig'dirgan.



*1-rasm. Kolizey maydoni*

Bristoldagi fuqarolik qurilishlari Boshqarmasining professori Jorj Milonakis boshchiligidagi olimlar Piza minorasi chidamliligining sirini ochishdi. Minora so'nggi 700 yil mobaynida yuz bergan bir nechta jiddiy zilzilalarga bardosh berdi. Aniqlanishicha, tuproqdagi dinamik ta'sir uning chidamliligini ta'minlaydi.

XIV asrda qurilgan minora o'tgan asr oxiridagi rekonstruksiya vaqtida besh darajali qiyalikka ega bo'lgan, chunki u yumshoq yerdagi kichik poydevor ustida turibdi. 60 metrli bu binoning uchi 5 metrga egilgan.

Shunga qaramay, mashhur italyan minorasi garchi ko'pchilik muhandislar kichik yer silkinishi paytida uning qulab tushishiga ishonchlari komil ekanini aytsa-da, eng kuchli seysmofaollik davrida ham chidamliligini ko'rsatdi.

Muhandislarning fikriga ko'ra, uning umumiy balandligi, qattiq tuzilishi, shuningdek, yumshoq poydevori tuproqdagi tebranishni shunday o'zgartirish imkonini beradiki, zilzila paytida yerning harakatlanishi minoraga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Olimlarning ta'kidlashlaricha, Piza minorasining dinamik ta'siri rekord ko'rsatgichlarga erishishi mumkin.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.tarix.uz](http://www.tarix.uz)
3. [www.lib.ru](http://www.lib.ru)
4. [www.istoriya-nauka.com](http://www.istoriya-nauka.com)

